



**Furqat Nurmanov**

*O‘zbekiston ommaviy kommunikatsiyalar va jurnalistika universiteti*

*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti*

*E-mail: [nurmonov.f@gmail.com](mailto:nurmonov.f@gmail.com)*

*Тел: (+99897) 366-45-22*

*orcid 0009-0008-8047-6629*

**Аннотация.** *O‘zbek tilshunosligi fonetika bo‘limida o‘rganilgan muammoli mavzulardan biri – fonetik hodisalar bo‘lib, ularning tadqiqi tilshunoslikning bahstlab mavzularidan biri. Maqolada singarmonizm hodisasi, uning til tarixi va bugungi davr og‘zaki va yozma nutqidagi holati yuzasidan tadqiqotchi olimlar ilmiy qarashlari, xulosalar bayon qilingan.*

**Калит so‘zlar:** *tilshunoslik, fonetika, tovush o‘zgarishlari, og‘zaki va yozma nutq, imlo, singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, tovush tushishi, tovush qo‘shilishi, tovush o‘zgarishi*

## О НЕКОТОРЫХ ФОНЕТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЯХ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

**Фуркат Нурманов**

*Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана*

*Доцент кафедры Узбекского языка и литературы*

**Аннотация.** *Одной из проблемных тем, изучаемых в разделе фонетики узбекского языкознания, являются фонетические явления, изучение которых является одной из самых спорных тем языкознания. В статье изложены научные взгляды и выводы ученых-исследователей о явлении сингармонизма, его истории языка и положении в устной и письменной речи современности.*

**Ключевые слова:** *языкознание, фонетика, звуковые изменения, устная и письменная речь, правописание, сингармонизм, ассимиляция, диссимиляция, метатеza, выпадение звука, добавление звука, звуковое изменение.*

## ABOUT SOME PHONETIC FEATURES OF THE UZBEK LANGUAGE

**Furqat Nurmanov**

*The University of Journalism  
and Mass Communications of Uzbekistan  
Associate professor of the Uzbek language  
and literature department*





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Annotation.** *In the phonetics section of Uzbek linguistics, one of the most discussed topics is the study of phonetic phenomena. The article presents the scientific views and conclusions of research scientists on the phenomenon of harmonism, its history in language and the current state in oral and written speech.*

**Keywords:** *linguistics, phonetics, sound transformations, oral and written speech, spelling, harmonism, assimilation, dissimilation, metathesis, sound loss, sound addition, sound transformation.*

**Kirish(Introduction).** Ma'lumki, filshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishida hind va yunon tilshunosligining o'rni va ahamiyati katta bo'lsa-da, nutq jarayonida yuz beradigan fonetik o'zgarishlar haqida arab tilshunslarining ilmiy qarashlarida chuqur ma'lumot beriladi. Ular nutq jarayonidagi fonetik o'zgarishlar zamirida talaffuz qulayligiga intilish yotganini ta'kidlaydi. Arablardan ming yillar keyin Ovrupo tilshunosligida A. Martine va Ye. D. Polivanovlar tomonidan fonetik o'zgarishlarning sababi qulaylik va kam kuch sarflashga intilish ekanligini bayon qildilar.[1]

Nutq murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning asosiy tarkibiy elementi so'z talaffuzida turli fonetik o'zgarishlar, asosan, tovushlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida yuz beradi. So'zlarni talaffuz qilish jarayonida unlilar, jarangli va jarangsiz undoshlar ma'lum fonetik qonuniyat asosida bir-biriga o'xshashlik yoki noo'xshashlik tomon o'zgaradi, natijada kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlari vujudga keladi.

So'z tarkibida yuz beradigan fonetik o'zgarishlarga singarmonizm, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza, tovush tushishi, tovush qo'shilishi, tovush o'zgarishi kabilar kiradi.[2;-B.29]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya(Materials and methods).** Singarmonizm tovushlar moslashuvining alohida turidir. N.K.Dmitrev bu hodisani "tovushlar assimilyatsiyasining ko'rinishlaridan biridir"[3;-B.38] deb izohlaydi. U turkiy tillarning o'ziga xos qonuniyatlaridan hisoblanib, turkiy tillarning barchasida o'z aksini topgan.[4] Adabiy tilida singarmonizm hodisasi uchramaydigan o'zbek tili ham, ayrim shahar shevalaridan tashqari, barcha shevalari singarmonizmli tildir. O'zbek adabiy tilida ham singarmonizmning rudimenti yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun uning fonetikasiga bag'ishlangan darslik va qo'llanmalarda singarmonizm, albatta, tilga olinadi.[5]

Singarmonizm (yun. syn — birga+harmoniya — ohangdoshlik). So'zning asosi va affiks tarkibidagi unlilarning o'zaro uyg'unlashuvi, garmoniyasi. Bu hodisa ayrim turkiy tillar uchun, o'zbek tilining esa ayrim shevalariga xos xususiyatdir. Mas., o'zbek tilining qipchoq tip shevalarida uchinchi shaxs egalik affiksining i, ы, u kabi variantlarga egaligi singarmonizm belgisidir: ishi, аты, o'zu) каби.[6;-B.87] Qipchoq va o'g'uz shevalarida singarmonizm hodisasining to'liq saqlanganligini quyidagi misollar isbotlaydi: olgan(adabiy tilda)-alg'an(qipchoq shevasida), borgan(ad.t.)- borg'an(qip. sh.), o'ttiz(ad.t.)- o'ttuz(qip.sh.), uyimga(ad.t.)- uyumə(o'g'uz shevasida).





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O‘zak va affiksdagi unli tovushlarning uyg‘unlashuvi (shuningdek, undoshlar ham yondosh unilarning til oldi yoki til orqa unilari ekanligiga qarab moslashishi mumkin) talaffuzda yengillik yaratadi, artikulyatsiya jarayonini tezlashtiradi. Ko‘rinadiki, bunday holat og‘zaki nutq uchun ham yozma nutq uchun ham xos bo‘lib, so‘z talaffuzida muhim o‘rin tutadi


Singarmonizm tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg‘unligidir. Bu hodisa o‘zbek tili taraqqiyotining qadimgi turkiy til va eski o‘zbek tiliga xos bo‘lib, uning xususiyatlari ayrim shevalarda mavjud. Eski o‘zbek tilida unlilar yumshoqlik yoki qattqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatidan, hatto undoshlar ham jaranglilik va jarangsizlik xususiyatiga ko‘ra bir-biriga moslashgan va bu tanglay (til) uyg‘unligi hisoblangan. Tanglay uyg‘unligi qonuniyatiga ko‘ra so‘z boshida til oldi unlisi kelsa, so‘z o‘rtasi va oxirida ham til oldi unlisi kelishi, ya‘ni barcha bo‘g‘inlardagi unlilar o‘zaro uyg‘unlashuvi, moslashuvi shart bo‘lgan. Bu hol talaffuzda artikulyatsion qulaylik tug‘dirgan, tovushlarning ohangdoshligini ta‘minlagan: *baramыз, ketamыз, gullar, qyshlag‘ьмыз, qullik* kabi.[7;-B.49]

Xalq o‘gzaki ijodi, Sharq mutafakkirlari adabiy merosi namunalari yuksak san‘at darajasida o‘qilganda hamda o‘zbek xalq shevalariga xos so‘zlarda bu qonuniyat to‘liq amal qiladi.

**Muhokama(Discusion).** Singarmonizm hodisasi barcha turkiy tillarga xos bo‘lib, bu tillar qarindoshligining tovush tizimidagi asosiy belgilaridan biri sanaladi. Bu tovush hodisasi o‘zbek tili tarixining turli davrlarida “qalinlik va ingichkalik ohangi”, “tovushlar uyg‘unligi”, “ohangdoshlik”, “ohang qonuni” kabi so‘z va so‘z birikmalari bilan nomlanib kelingan. Singarmonizmning ayrim adabiyotlarda faqat unli tovushlar uchun xos ekanligi ta‘kidlanadi, ya‘ni bir so‘zda faqat til oldi (yumshoq) unli tovushlari (i,e,a,) yoki faqat til orqa (qattiq) unli tovushlari (u,o‘,o) keladi. Aslida, bu hodisa undosh tovushlarning qo‘llanishida, o‘zakdagi til orqa (qattiq), til oldi (yumshoq) unlilar bilan undosh tovushlarning moslashib kelishida ham kuzatiladi.

O‘zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi haqida turli qarashlar mavjud: a) til tarixiga oid tadqiqotlarda, darslik va qo‘llanmalarda o‘zbek tilida singarmonizm hodisasi XX asr boshlarigacha amal qilganligi qayd qilinadi. Keyingi davrlarda o‘zbek tilining o‘sishi, rivojlanishi, tabiiy taraqqiyoti natijasida bu hodisaning yo‘qolganligi keltiriladi; b) ilmiy adabiyotlarda “Singarmonizm qonuni hozirgi o‘zbek tilida buzilgan, ammo boshqa turkiy tillarda, ayrim o‘zbek shevalarida saqlangan”. [8;-B.32] “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili, asosan, singarmonizmsiz til hisoblanadi va singarmonizimli boshqa turkiy tillardan farq qiladi” [9;-B.49] singari fikrlar keltiriladi.

Adabiyotlarda turkologlar tomonidan keltirilgan ma‘lumotlarda, asosan, qaysi tovushlarning qaysi tovushlar bilan almashinib kelishiga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, qaysi va qanday tovush qanday tovushga o‘tishi masalasi tadqiq etilishdan chetda qolgan. Bu masala o‘zbek tilshunosligida fonetikaga bag‘ishlangan V.V.Reshetovning o‘zbek tiliga, [10;-B.228] V.Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovlar hamkorligidagi o‘zbek





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

dialektologiyasiga[11;-B.135] bag'ishlangan ishlarida va ayrim maqolalar doirasida tadqiq etilgan. Bu masalada, ayniqsa, F.A.Abdullayevning qilgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.[12;-B.102] Olim yuqoridagi fonetik hodisani "tovush urchishi" deb ataydi.

Tilshunos olim Q.Mahmudovga ko'ra,[13;-B.33] undosh tovushlarning uyg'unligi XI-XIV asrlarga oid yozma manbalarida bar-mak - bərmək; tur-mak – türmək, sızmak, səzmək kabi so'zlarda tilning gorizontal harakatiga ko'ra, birinchi so'zdagi -b undoshi qalin talaffuz qilingan. Bərmək so'zida esa ingichka aytilgan, turmak so'zidagi -t undoshi qalin, türmək so'zida esa ingichka talaffuz qilingan. Shuningdek, sızmak so'zidagi -s undoshi qalin, səzmək so'zidagi -s undoshi ingichka talaffuzga egadir.

Undosh tovushlarning qalin, ingichka talaffuzi chig'atoy adabiy tilida bitilgan yozma manbalarda ham davom etgan. Shuning uchun ham Alisher Navoiy "Muhokamat –ul lug'atayn"da turk va eroniy tillarni qiyoslar ekan, turkiy so'zlar qalin, ingichka talaffuz qilinishi haqida qator misollar keltirgan. undosh tovushlarga xos qalin, ingichka talaffuz xususiyatlari Alisher Navoiyning hamma asarlarida mavjud. Navoiy asarlarida qalin ingichka aytiluvchi undoshlar turkiy so'zlarning barcha holatlarida uchraydi. Qalin talaffuzli undoshlar:[14] bo'l(fe'l) I,345 b. B: bayram(196,I t.), baliq(201, I t.), balchiq(209 b.I t.) kabi. Olim bəgim(253,I t.), bəl (262,I t.), bər(270, I t.), bərk(271, I t.) kabi so'zlarda –b undoshi, yigit(77,II t.), yigirma (77,II t.), yigir (70, II t.) so'zlarida -y undoshi ingichka talaffuzli, yıl (78,II t.), yılan(78, II t.), yır(79,II t.), yırt(80,II t.), yığ'(81,II t.) so'zlarida –y qalin aytiluvchi undosh sanaladi.

**Natijalar(Results).** Ohangdoshlik hodisasi turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lib, u tovushlardagi uyg'unlikni, o'zaro ohangdoshlikni ta'minlaydi. Aksariyat adabiyotlarda ohangdoshlik haqida gap ketganda, ko'pincha, unilardagi til oldilik va til orqalik, hamda lablanganlik va lablanmaganlik to'g'risida gapiriladi. Vaholanki, ohangdoshlik hodisasi nafaqat unilarga, balki tilimiz tarixiga nazar tashlasak, undosh tovushlarga ham xosdir. Shuningdek, hozirgi davr adabiy tilimizda faol qo'llanadigan xalq hikmatli so'zlari(*Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, To'g'ri gap tuqqaningga yoqmas*)da ohangdoshlik qonuniyati to'liq amal qiladi.

Singarmonizm hodisasining o'zbek adabiy tilida cheklash bosqinchilik yashirin siyosatining amaldagi milliy yozuvning rus yozuviga o'zgartirilishiga olib keldi. Natijada milliy madaniyat, milliy tarix asl holati o'zgarishga uchradi, qardosh tillar bir-biridan uzoqlashtirildi, milliy mumtoz adabiy manbalar mazmun-mohiyatini to'g'ri, aslicha tushunushdan mahrum qilindi.

Tilshunos olim J.Xudoyberdiyev ta'kidlaganidek,[15;-B.6] milliy adabiy tillar me'yorlarini shakllantirish, alifbo va imlolarni qayta-qayta o'zgartirish, terminlar qabul qilish masalasi, xususan, o'zbek adabiy tilidan singarmonizm qonunini chiqarish, unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini kamaytirishning zamirida chorizm bosqinchilik siyosatining yashirin maqsadi yotadi.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

O‘zbek tilshunoslari ilmiy qarashlariga ko‘ra,[16;-B.26] turkiy tillarning hammasida keng qo‘llaniluvchi singarmonizm qonunining hozirgi adabiy tilimizda inkor etilishi tilimizning tovushlariga xos bo‘lgan juftlik muvozanatini yo‘qotdi. Ikki xil talaffuz o‘rniga bir xil talaffuz qilinishi natijasida ko‘pgina so‘z ma‘nolarining-chalkashligi yuzaga keldi. Tilimiz unli tovushlarining bo‘yoqdorligi va ohangdorligi 9 tadan 6 taga kelib qoldi. Bu esa - tilimizning tovush tabiatiga katta xavf tug‘dirdi. Qolaversa, unli tovushlarning har xil talaffuzi natijasida yuzaga keluvchi affikslarning ikki xil ko‘rinishi, ikki xil grammatik formasiga ham jiddiy putur yetkazildi: amaldagi ikki xil formadan» faqat bittasi qo‘llanishi natijasida tilimizning affikslar sistemasi, grammatik imkoniyatlari qashshoqlashdi. Masalan,-moq va-mak o‘rnida faqat -moq, -lik va -liq. o‘rnida faqat -lik, -g‘on va -gan o‘rnida faqat -gan, -ga va -g‘a, -ka va -qa affikslari o‘rnida faqat -ga (qisman -ka va -qa) affiksini qo‘llash adabiy-orfografik normaga aylanib qoldi. Natijada badiiy tilimizning qofiyadoshlik va tuyuqdoshlik imkoniyatlari va sifatlariga ham ma‘lum darajada zarar eta boshladi. Darvoqe, hozirgi grammatik qoidamizda -g‘o, -qa, -g‘an, -g‘on, -g‘ay singari affikslar butunlay qo‘llanilmaydi.

**Xulosa(Conclusion).** Asrlar mobaynida tarixi, madaniyati, tili, adabiyb merosi mustarak bo‘lgan turkiy tilli xalqlar alifbo va imlosini yangi alifboga o‘zgartirish, avvalo, chorizm davri til va alifbo siyosatining asl maqsadi sanaladi. Hukmron mafkura vakillari o‘zlarining yagona alifbo, umumtil yaratish siyosatini amalga oshirish uchun milliy tillar, ularning alifbosi, imlosini ham imkon boricha o‘zaro yaqin, qarindosh tillardan ajratish, ularga bosqichma-bosqich rus alifbosini joriy etishga asosiy e‘tiborni qaratdi. Bu millatni nafaqat milliy tarixidan, beqiyos ma‘naviy merosidan, o‘zaro mustarak milliy qadriyatlaridan, asosiysi, milliy ta‘lim tizimining ham buzilishiga, yagona milliy tilning yozma va o‘gzaki shaklining ham o‘zaro nomuvofiqligiga olib keldi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. Мартине А. Принцип экономии в фонетических изменениях . М .,1980; Поливанов Е. Д. Где лежат причины языковых изменений ? — “Статьи по общему языкознанию” китоби ( М. , 1968).
2. Турсунов У.,Мухторов А.,Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.Тошкент,1992.
3. Дмитриев Н.К.Грамматика башкирского языка. –Л.1948.
4. Щчербак А.М.Сравнительная фонетика тюркских языков. –С.37;Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников VII-IX вв.-Л.:Наука,1980.; Покровская Л.А.Грамматика гагаузского языка.-М.:Наука, 1964.;Мусабаев К.М. Грамматика караимского языка.-М.:Наука, 1964.;Современный татарский литературный язык. Лексикология. Фонетика. Грамматика.-М.:Наука, 1969.; Грамматика азербайджанского языка / Под. общ. ред. М.Ш.Шералиева и Э.В.Севортяна-Баку:Елм, 1971.;Кеңесбаев И., Мусабаев Ғ. Қазіргі қазақ тілі. –





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Алматы, Мектеп, 1975.; Грамматика хакасского языка/под.ред.проф.Н.А.Баскакова.-М.:Наука, 1975.; Ахматов Т., Мукамбаев Ж. Азыргы кыргыз тили. -Фрунзе:Мектеп, 1978.; Грамматика якутского литературного языка.-М.:Наука, 1982.

5. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент, Ўқитувчи. 1978.; Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.-М.-Л.:Наука, 1960.; Ҳозирги ўзбек адабий тили / Ғ.Абдурахмонов тахр. ост. Тошкент, Фан. 1967.; Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. Тошкент, Фан. 1967.; Атамйрзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. Тошкент, Фан. 1974.

6. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1984.

7. Абдурахмонов Х., Рафиев А., Шодмонкулова Д. Ўзбек тилининг амалий грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”. 1992.

8. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бухоро, “Бухоро университети” нашриёти, 1999.

9. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “ФАН” 1966.

10. Решетов В. В. Узбекский язык. Ч. I. 1960.

11. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. Тошкент, “ФАН” 1958

12. Абдуллаев Ф. А. Фонетика харезмских говоров. Тошкент, 1961.

13. Махмудов Қ. Алишер Навоий асарларида ундош товушлар уйғунлиги// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2001, №4

14. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. Тошкент, 1983.

15. Xudoyberdiyev J. O'zbek adabiy tilidan singarmonizning chiqarilishi. Toshkent, 2024-y.

16. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. Т.: ФАН, 1988. 2

